



**O‘ZBEKISTONDA YANGI UYG‘ONISH DAVRI, YA’NI  
UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISH BORASIDA  
AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

*Kenjayev Shavkatjon*

*Guliston davlat universiteti dotsenti*

**ABSTRACT**

Ushbu maqola Birinchidan Uyg‘onish davri allomalari, Ikkinchidan sharq Renessansi va Temuriylar davrida amalga oshirilgan ishlar hamda O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ahamiyati, mazmun-mohiyatini tushuntirib beradi.

**KEY WORDS**

Birinchii Uyg‘onish davri, Renessans, Temuriylar davri, Amir Temur, Temuriylar Renessansi, yangi Uyg‘onish davri, Uchunchi Renessans, islohotlar, madaniyat.

"Renessans" atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma’rifiy yuksalishga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, uni o‘rta asr turg‘unligidan yangi davrga o‘tish bosqichi deb tasvirlanganlar. Renessansning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilmu ijodda yuksalish, mutaassiblikni yorib o‘tib, insonni ulug‘lash, uning qobiliyati, aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, adabiyot va san’atda dunyoviy go‘zallik, inson erki va hurfiylik uchun kurashish kabilar bo‘lgan. Buning natijasida esa, ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug‘vor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilm-fan gullab-yashnadi. Ammo Renessans, ya’ni Uyg‘onish davri faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini umumiy o‘rganib chiqqan olimlarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, Osiyo markazida joylashgan Movorounnahr, Xuroson, Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9-12-asrlar) ulkan madaniy ko‘tarilish yuz



bergan, ilm-fan, adabiyot, falsafa g'oyatda rivojlanib yuksak insonparvarlik g'oyalari jamiyat hayotini to'ldirgan hamda aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo tarixida "Musulmon Renessansi" (A. Mets) yoki "Sharq Uyg'onishi" (N.I.Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirib berdi. Ayniqsa, aniq fanlar sohasida Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy hamda Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad G'azzoliy kabilarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqildi. She'riyatda Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Sheroziy, Ganjaviy, Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib chiqdi hamda o'lmas asarlar yaratildi.

Ikkinchi Uyg'onish davri esa bevosita Amir Temur nomi bilan bog'liq va Temuriylar davriga to'g'ri keladi hamda bu davr tarixga Ikkinchi Uyg'onish davri yoki " Temuriylar Renessansi" nomi bilan kirgan. Amir Temurning o'qimishliligi, adabiyot va san'atga qiziqishi, shuning bilan birgalikda o'z ona tilidan tashqari yana bir necha tillarni ham yaxshi bilishi, shu asosida boshqa davlatlardan olib kelingan olimu fozillar bilan ko'plab suhbatlar uyushtirishi, keyinchalik uning olib borgan oqilona siyosati zahirida XIV - XV asrlarda sharq musulmon olamida IX - XII asrlardan so'ng yana bir uyg'onish davrini vujudga kelishida juda katta omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temur har bir sohaga e'tibor qaratdi, xususan, ta'lim, ilm-fan sohasiga asosiy e'tiborini berdi. Ayniqsa, mo'g'ullardan so'ng ezilgan xalqning o'tmishini, ajdodlarining buyuk shaxslar ekanligini anglash uchun tarix sohasini rivojlantirdi. Temurning o'zi ham tarixiy adabiyotlarni ko'p mutolaa qilgan. Bu haqida Amir Temur saroyiga 12 yoshida keltirilgan, tarixchilik bilan shug'ullangan Ibn Arabshoh o'zining Amir Temur tarixi kitobida shunday keltiradi: "Temur tarix(kitob)lari, Xudoning rahmati va

salomi bo'lg'ur anbiyolar "Qissalarni podshohlar siyratlari va o'tgan salafilar haqidagi hikoyalarni doimo safarda ham xadarda ham o'qutib, qunt bilan tinglar edi" [1]. Amir Temur davlatida ilm-fan bilan shug'ullanish uchun juda katta imkoniyatlar yaratishi bilan birgalikda olimlarni ham har jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo ettirgan. Buning natijasida esa, Temuriylar davrida ilm-fan ravnaq topib, bu jahon tarixida " Ikkinchi Renessans" nomi bilan tilga olinadi. Prezidentimiz ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida " O'n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat yurtimizda Ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi", deb ta'kidlagan. Birinchi va ikkinchi uyg'onish davri haqida o'rganib, O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho'qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish- Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda", degan so'zlari aytilgan. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o'zimizning milliy o'zligimizni anglash, boy tarixiy-ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati mag'zini chaqish va uni ro'yobga chiqarishga intilgan bo'lsak, endilikda xalqimiz jipslanib "milliy tiklanishdan – milliy yuksalish" g'oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarning mujassamligi e'tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg'un bo'lgan ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining o'zan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda. Yurtimizda ijtimoiy tafakkur darajasining tobora o'sishi bois, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa jabhalarda



mehnat va sohaga yondashuv madaniyati hamda mas'uliyati o'zgardi. Ayniqsa, fan sohasiga qaratilayotgan alohida e'tiborning zamirida chuqur ma'no bor. Davlatimiz rahbari hozirgi davrni milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon deb e'lon qilganligining zamirida qat'iy ishonch va chuqur hikmat mujassam. Negaki, keyingi 10 yilligimiz asl yuksalish va taraqqiyot davri bo'lishi muqarrar. Zero oxirgi yillarda qabul qilingan va albatta qilinajak qonunlar, farmon va qarorlar, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar taraqqiyotning yangi ufqlariga asos bo'ladi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan "Uchinchi Renessans" ning poydevori yoshlar ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Chunki har bir davlatning kelajagi uning yoshlari qo'lidadir, yosh avlod qanchalik intiluvchan va zehnli bo'lsa, davlat shuncha tez va samarali rivojlanadi. Shu sababli ham davlatimiz rahbari tarafidan yoshlarga ko'plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda, tashkil etilayotgan ko'riktanlovlar va musobaqalarning barchasi yoshlarning kelajagini o'ylagan holda tatbiq etilayapti. Jumladan, yurtimizda o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovlarining asosiy maqsadi ham yoshlarda bilimga bo'lgan mehrni uyg'otish, ularni o'qishga jalb etish va bo'sh vaqtlarini samarali va mazmunli o'tkazish uchun tashkil qilinmoqda. Bundan tashqari sport, madaniyat, musiqa sohalarida ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda va bularning barchasi o'z natijasini ko'rsatib kelyapti. Shaxmat, boks, karate, belbog'li kurash va shu kabi sport turlarida O'zbekiston yoshlari davlatimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarib, xalqimiz dovrug'ini dunyoga tanitishmoqda va bularni biz yurtimizda uchunchi renessans poydevori uchun amalga oshirilayotgan islohotlar deya atasak mubolag'a bo'lmaydi. Yangi O'zbekiston me'mori va tashabbuskori hisoblanuvchi Prezidentimiz qayd etganidek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga

mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruratdir". Bugungi kunda biz uchinchi Uyg'onish davri ostonasida turibmiz. Agar O'zbekiston Prezidentining keyingi besh yilda hayotimizning birgina yo'nalishi, ya'ni ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag'zini to'la chaqib ko'rsak ham, navbatdagi Ma'rifat Renessansining markazi Yangi O'zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poyde vor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas". Albatta, Birinchi va Ikkinchi Renessans kabi Uchinchi Renessans ham uzoq davom etadigan jarayon. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni besh-o'n yil emas, ancha katta va mashaqqatli davrni talab qiladi. Buning uchun, avvalo, minglab iste'dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar, fidoyi insonlar nihoyatda zarur. Ajdodlarimiz birinchi va ikkinchi uyg'onish davrida o'zlarining bor kuch va bilimlarini o'z xalqining kelajagi uchun, davlat yuksalishi uchun sarflashgan ekan, biz ham bu yo'lda ularning qilgan ishlarini davom ettirishimiz, ularga munosib avlod bo'lishimiz shart va zarurdir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yangi Uyg'onish davri - Uchinchi Renessans qisqa vaqt mobaynida paydo bo'ladigan hodisa emas, yangi O'zbekistonni barpo etish uchun vaqt va malakali kadr va yoshlar suv va havodek zarurdir. Shu maqsadda amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida ham davlatimizni rivojlantirish, xalqimiz hayotini yanada yaxshilash va rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishdek oliy maqsadlar mavjuddir. Biz yoshlar esa bizga yaratib berilayotgan sharoit va imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishimiz, davlatimiz va xalqimiz manfaati uchun yuksak marralarni zabt etishimiz va o'z kasbining mutaxasisi sifatida rivojlanib vatanimizga munosib farzand bo'lmog'imiz kerak.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2-kitob
2. Bo‘riboy Axmedov. Amir Temur saboqlari. 2-Tom. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1999-yil.
- 3.<http://www.oyina.uz>
- 4.<http://cyberleninka.ru>
- 5.pravacheloveka.uz
6. Sh. Kenjayev “Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarga axloqiy taaarbiya berishga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Diss.,-2022 y.
- 7.Sh. Kenjayev. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.,2024 y.
- 8.Kenjayev Sh, Asatulloev A, Falsafa o‘quv qo‘llanma. T., - 2024, NIFMCHJ.
- 9.Kenjayev Sh Yoshlar ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda badiiy adabiyotning o‘rni. Monografiya. T., - 2022 Innovatsion – Ziyo.

